

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 005.93:745/749(575.146)**

Ravshanova Gulchexra Ravshanovna

**HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA TALABNI
OSHIRISHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

08.00.11 - Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent Sharopova Nafosat Radjabovna**

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

	KIRISH	3
1-bob.	HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA TALABNI OSHIRISHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	12
1.1.	Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida talabni oshirishda marketing vositalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati.....	12
1.2.	Hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirishda marketing vositalarini qo'llashning uslubiy jihatlari.....	25
1.3.	Hunarmandchilik mahsulotlari sotuvini oshirishda marketing vositalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	41
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	54
2-bob.	HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA TALABNI OSHIRISHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	56
2.1.	Respublikada milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish tendensiyalari tahlili.....	56
2.2.	Buxoro viloyatida milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili	71
2.3.	Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlariga iste'molchilar talabini o'rganish holati tahlili.....	84
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	97
3-bob.	BUXORO VILOYATI HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA TALABNI OSHIRISH BO'YICHA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	99
3.1.	Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida talabni oshirishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	99
3.2.	Iste'molchilarning hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talablarini oshirishni ekonometrik modellashtirish.....	116
3.2.	Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari turlarini ko'paytirish imkoniyatlarining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish	133
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	147
	XULOSA	149
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	151
	ILOVALAR	163

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida hunarmandchilik mahsulotlari bozorida talabni oshirishda zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanish milliy madaniy merosni bozor qiymatiga aylantirish, turistik oqimlar bilan integratsiyalashuv va qo‘shilgan qiymat ulushini oshirishda muhim drayver sifatida namoyon bo‘lmoqda. Brendlash, dizaynni yangilash, raqamli platformalar orqali onlayn savdo, turizm marshrutlari va kreativ industriyalar bilan bog‘liq kollaboratsiya strategiyalari iste‘molchilarda mahsulotga emotsional va madaniy qiziqish uyg‘otib, ichki va tashqi bozorlarda hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni kengaytiradi. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, “2024-yilda hunarmandchilik mahsulotlari jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ning 6,1 foizini tashkil etib, 50 milliondan ortiq ish o‘rnini yaratmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyada hunarmandchilik mahsulotlari YaIMning 5,6 foiz, Germaniyada 4,8 foiz, Italiyada 4,3 foiz, AQShda 4,2 foiz hamda Xitoyda 3,9 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich mamlakat YaIMining taxminan 1,46 foizni tashkil etadi”¹. Shuningdek, “2024-yilda global hunarmandchilik bozori hajmi 1,1 trillion AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, yiliga o‘rtacha 5,4 foiz o‘sish sur‘ati qayd etilgan”². Bu ko‘rsatkichlar hunarmandchilik mahsulotlariga talabning global miqyosda ortib borayotganini va milliy iqtisodiyotlar uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini ko‘rsatadi, hamda xalqaro tajriba milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing strategiyalarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llashning dolzarbligini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida hunarmandchilik mahsulotlari bozorida talabni oshirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va raqamli savdo kanallaridan foydalanishni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faollashmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion marketing yondashuvlari,

¹ United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). *Creative Economy Outlook 2024*. <https://digitallibrary.un.org/record/4061670>; Akhtem Useinov, Komiljon Karimov, Bekzod Zakirov. Center for Policy Research and Outreach (CPRO). (2024). *Creative Economy in Uzbekistan: Policy brief and sectoral overview*. Westminster International University in Tashkent (WIUT) <https://cpro.wiut.uz/images/documents/0.%20Creative%20>

² **Fortune Business Insights. (2024).** *Handicraft Market Size, Share & Industry Analysis, Regional Forecast, 2023-2032*. Fortune Business Insights. <https://www.fortunebusinessinsights.com/handicraft-market-108435>

dizayn va bozordagi o'zgarishlarga moslashuvchan strategiyalarni joriy etish hunarmandchilik sohasida barqaror talabni shakllantirish, eksport salohiyatini oshirish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda hunarmandchilik sohasining salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun bozor kon'yunkturasini chuqur o'rganish, iste'molchilarning ehtiyoj va xulq-atvorini tahlil qilish, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish zarur. Shu ma'noda, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida³ belgilangan ustuvor vazifalar - eksport salohiyatini oshirish va madaniy meros asosidagi iqtisodiy yo'nalishlarni rivojlantirish - hunarmandchilik sohasida talabni shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish zarurligini yanada dolzarb qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son "Hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5841063>

vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-91-son farmoni. (12.06.2023). Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida <https://lex.uz/uz/docs>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017). *Hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PF-5242, 17-noyabr 2017). Toshkent <https://lex.uz>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-77-son qarori. (30.12.2021). Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda marketing va savdo tizimini takomillashtirish. <https://lex.uz/docs>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.11.2019 yildagi PQ-4539-son https://lex.uz/docs/-4622088?utm_source,